

DOSTON IJROCHILIGIDA JO‘RANAVOZLIK SAN’ATI



Injigul Soburova

“Doston ijrochiligi” kafedrasida dotsenti,
Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat
ko‘rsatgan madaniyat xodimi
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSI

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-07-08>

Annotatsiya: Ushbu maqolada doston ijrochiligida jo‘ranavozlik san’ati, baxshi va musiqaning uyg‘unlashuvini ta‘minlashga qaratilgan muhim elementlari, Qoraqalpoq doston ijrochiligida g‘ijjak cholg‘usining o‘rni, kelib chiqish tarixi, doston namalarida baxshiga jo‘rnavor cholg‘u asbobi ekanligi, g‘ijjak cholg‘usida yakka va jo‘r bo‘lib ijro etiladigan kuylar va g‘ijjak cholg‘usini mohir ijrochilari haqida fikr mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Doston, baxshi, jo‘rnavor, nama, nag‘ma, nola, g‘ijjak, dostonchilik maktablari.

Аннотация: В данной статье освещаются важные элементы в исполнении Достона, направленные на обеспечение гармонии бaxши и музыки в процессе исполнения. Были даны комментарии о роли и происхождении инструмента гжиджак в исполнении каракалпакского дастана, о том, что в дастанских намазах бaxши является надувным инструментом, о песнях, исполняемых на гжиджакском инструменте в сольных и совместных исполнениях, о мастерских исполнителях гжиджакского инструмента.

Ключевые слова: Дастан, бaxши, концертмeстр, мелодия, нагма, плач, гжиджак, эпические школы.

Abstract: This article highlights important elements in Doston’s performance aimed at ensuring the harmony of bakshi and music in the performance process. Comments were given about the role and origin of the gizzakh instrument in the performance of the Karakalpak dastan, about the fact that in the dastan prayers the bakshi is a wind instrument, about the songs performed on the gizzakh instrument in solo and joint performances, about the workshops of performers of the gizzakh instrument.

Key words: Dastan, bachhi, concertmaster, melody, nagma, crying, gijack, epic schools, music and music.

Kirish:

Xalq og‘zaki ijodini o‘rganish xalqning madaniyati, tarixi, an‘analari, urf-odat, orzu-umidlari, o‘y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir. Unda millatning o‘zligini namoyon qilish xislatlari, o‘zini anglashi, hayot tarzi, intilishlari, dunyoqarashi aks etadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek “Turli xalqlarning milliy o‘zligini, ularning tili va hayot tarzini, an‘ana va urf odatlarini ifoda etadigan baxshi san’ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir. Jahon madaniy merosining bu o‘lmas asarlari bizga insoniyatning naslu-nasabi, tarixiy ildizlari, olijanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi”[1]. Bugungi ma‘naviyatimizdagi yangilanish jarayoni, shubhasiz, adabiy merosimizni, shu jumladan xalq og‘zaki ijodini, uning badiiyati, mifologik qatlamini qay darajada o‘zlashtirishimiz bilan belgilanadi. Buning uchun esa eng avvalo san‘at va madaniyatga, adabiyotga zamin bo‘lgan xalqimizning qadim mifologik tasavvurlarini, baxshi san’ati va doston ijrochiligini yaxshi o‘rganishimiz, tadqiq etishimiz lozim bo‘ladi. Zero, epik ijodiyot har bir xalqning badiiy tarixidir.

Xalqimizning asrlar davomida yaratilgan dostonlarimizni ijro etuvchi baxshi san‘atini asrab-avaylash va uni yanada rivojlantirish uchun mamlakatimizda ko‘pgina ishlar amalga oshirilmogda. “Dostonchilik va baxshichilik - milliy g‘ururimiz, uning zamiridagi ezgu qadriyatlarini xalqimizga yetkazish lozim”[2] deb ushbu sohada ijod qilayotgan barchamizning zimmamizga g‘oyat muhim

sharafli vazivalarni belgilab berganliklari bezij emas albatta. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 2-sentyabrdagi 536-son qarorida “Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti” faoliyatini tashkil etilishi, bunda maqom va baxshichilik san’ati sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim jarayoniga o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish[3] bo‘yicha qarorlari, shu bilan birga, 2029-yil Surxondaryo viloyati, Termiz shahrida bo‘lib o‘tgan I Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, 2021-yil Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahrida o‘tkazilgan II Xalqaro baxshichilik san’ati festivali va 2-23-yil Sirdaryo viloyati Guliston shahrida tashkil etilgan III Xalqaro baxshichilik san’ati festivali bunga yoqqol misol bo‘la oladi. Bundan tashqari har yili respublikamiz bo‘ylab turli ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilib, yosh havaskor ijrochilar rag‘batlantirilib kelinmoqda va yoshlarimizning ushbu san’at turiga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda.

Tahlil va natijalar:

Qadimiy tarixga ega O‘rta Osiyo xalqlari musiqa san’atida cholg‘u sozlarining turli-tumanligi, xilma-xilligi doimo jahon xalqlarini hayratlantirib kelgan. Torli, damli, kamoni va urma cholg‘ularga bo‘linib ular ham o‘z navbatida tanbur, dutor, chang, qonun, ud, nay, qo‘shnay, g‘ijjak, rubob, doira, sozlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, Qoraqalpoq xalqiga mansub qo‘buz, changqo‘buz, dutor, g‘ijjak bo‘lomon cholg‘u asboblari asrlardan beri mohir sozandalar qo‘lidan tushmasdan kelmoqda. Doston ijrochiligida jo‘rnavezlik haqida gapirar ekanmiz, doston ijrochiligida jornavoz yoki jo‘rnavez shakllanishi — bu musiqiy an‘ananing muhim qismi bo‘lib, ijro jarayonida jo‘r bo‘lish, ya‘ni musiqa vositasi bilan ovozni qo‘llab-quvvatlash va hamohang qilishni anglatadi. Jo‘rnavezlilar musiqiy sozlar yordamida doston ijrochisining qo‘shiq va she‘rlariga yordam berib, ijroni boyitadi.

Jornavez shakllanishining asosiy jihatlari:

1. *Cholg‘ular va musiqiy vositalar.* Jornavozlar ko‘pincha an‘anaviy cholg‘ular, masalan, dutor, qo‘biz, dombra, tor yoki rubob kabi milliy cholg‘u asboblilar yordamida ijroga jo‘r bo‘lishadi. Har bir cholg‘u asbobning o‘ziga xos sadosi va dinamikasi bor, bu dostonning umumiy kayfiyatini kuchaytirib, uni tinglovchilarga to‘liq yetkazishga yordam beradi.

2. *Ritm va temp.* Jo‘rnavezlilar dostonning syujet yoki holatiga qarab ritm va tempni o‘zgartirishadi. Masalan, jang yoki fojeali holatlar tezroq ritmda ijro etilishi mumkin, uyg‘un yoki lirik qismlarda esa ritm sust bo‘ladi.

3. *Ijrochining ovozi qo‘llab-quvvatlash.* Jo‘rnavezlilar asosiy ijrochining ovozi madaniy-musiqa jihatidan qo‘llab-quvvatlashadi. Ularning asosiy vazifasi — doston ijrosiga musiqiy ohang berish, ijrochining ovozi va so‘zlarini musiqa vositasida kuchaytirishdir.

4. *Musiqa va ovoz uyg‘unligi.* Jornavozlar bilan asosiy baxshilar o‘rtasidagi uyg‘unlik juda muhim. Musiqiy hamrohlikda notalar, ovozlar va sozlar bir-biriga mos bo‘lishi kerak. Ijrochilar bir-birlariga ishonch bilan murojaat qilib, ijro jarayonida musiqa va ovozlarning uyg‘unligini ta‘minlashadi.

5. *An‘analar va ustozlik maktablari.* Har bir mintaqaning yoki maktabning o‘ziga xos jo‘rnavezlik uslublari mavjud. Ba‘zi maktablarda dutor asosiy cholg‘u asbob bo‘lsa, boshqalarida rubob yoki qo‘biz keng qo‘llaniladi. Bu jo‘rnavezlik madaniyati avloddan-avlodga ustozlik orqali o‘tib keladi. *Jo‘rnavezlik madaniyatining rivojlanishi quyidagilardir:*

1. *Tarixiy asoslar.* Jo‘rnavezlik qadimdan xalq hofizlari va dostonchilar tomonidan qo‘llanilgan. Ular har bir ijrochining yordamchisi yoki jamoa a‘zosi bo‘lib, ijrochi avoziga (vocaliga) jo‘r bo‘lib turadigan sozandalar bo‘lgan. Bu, ayniqsa, xalq orasida mashhur bo‘lgan marosimlar, bayramlar va tantanalarda qo‘llanilar edi. Jo‘rnavezlik an‘analari asrlar davomida ustoz-shogird tizimi orqali o‘rganilib, avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

2. *Musiqa va ovoz uyg‘unligi.* Jo‘rnavezlilar asosan baxshining ritmikasi, tempi, ovoz kuchaytirishi yoki yumshatilishiga qarab, sozlar bilan hamohanglik yaratishadi. Bu uyg‘unlikka erishish jo‘rnavezlik san‘atining eng muhim jihatlilaridan biri hisoblanadi. Har bir soz ovozi bilan uyg‘un bo‘lishi kerak.

3. *Milliy asboblar roli.* Joʻrnavorlikdagi eng muhim jihat bu anʼanaviy milliy musiqa asboblarining roli.

Joʻrnavorlikda quyidagi sozlar keng tarqalgan: Bular, dutor: ikki torli asbob boʻlib, Oʻrta Osiyo va Oʻzbekistondagi xalq musiqasida juda keng qoʻllaniladi. Rubob: Ustun torli asbob boʻlib, joʻrnavorlikda chuqur va boy sadoli soz sifatida qoʻllaniladi. Qoʻbiz: Qozoq va qirgʻiz xalq doston ijrochiligida keng tarqalgan, koʻpincha shamanlik anʼanalari bilan bogʻliq. Dombra: Qirgʻiz va qozoq xalqining anʼanaviy sozi boʻlib, joʻrnavorlikda dinamik va ritmik taʼsir yaratadi.

4. *Dastlabki musiqiy maʼlumot.* Joʻrnavor boʻlish uchun koʻpchilik bolalikdanoq musiqiy maʼlumotga ega boʻlishi zarur. Bu maʼlumotni ustozlardan oʻrganish bilan birga, joʻrnavorlar oʻz sozlarini chalishni va doston ijrosida ulardan foydalanishni yillar davomida mashq qilishadi.

5. *Turli maktablar.* Har bir maktabning oʻziga xos joʻrnavorlik uslublari va sozlar bilan ishlash yoʻllari bor. Masalan, Turkiston maktabida dutor keng qoʻllanilsa, Xorazmda rubob va surnay asosiy sozlar sifatida qabul qilingan.

6. *Maxsus holatlar.* Baʼzan joʻrnavorlar doston ijrosi paytida dramatik vaziyatlarni kuchaytirish uchun sozlardan foydalanib, orqa fon yaratishadi. Masalan, jang sahnalarida ritm tezlashtirilib, shiddatli ohanglar qoʻllaniladi. Lirik va qaygʻuli qismlarda esa sozlar yumshoq va asta-sekin chaladi.

7. *Qoʻshma ijro.* Koʻpincha joʻrnavorlar yakka ijro emas, balki bir guruh ijrochilar bilan jamoa boʻlib chiqishadi. Bu holatda sozlarning oʻzaro uygʻunligi va mukammal ritmik uygʻonish orqali tinglovchilarda kuchli his-tuygʻular uygʻotiladi.

Doston va musiqiy hikoyalarning ijrochilari va yaratuvchilari boʻlgan oʻzan, jirov va baxshilar qobiz, tor, doʻmbira, dutor, gʻijjak, doira, qoʻshnay, bulamon va boshqa joʻrnavor sozlarini doston sherlari kuy-namalariga solgan holda kuylab kelganlar. Qoraqalpoq doston ijrochilik uslubi ikki turga boʻlinadi: Jirov va Baxshi ijrochiligi. Qoraqalpoq qahramonlik dostonlarini faqat Jirovlar kuylaydi. Ular baxshilardan farqli ravishda oʻzi qoʻbiz chalib ichki ovozda yakka xolatda kuylashadi. Baxshilarga ijro davomida Qoraqalpoq olamoʻynoq dutori, ananaviy uchtorli gʻijjak joʻr boʻladi. Baxshining oʻzi dutor chalib ijro etadi. Ular ishqiyy-romanik dostonlarni ochiq ovozda kuylaydilar[4].

Dastlab Sulton Mahmud Gʻaznaviy (988-1030) zamonida gʻijjak soziga ilk bor asos solingan degan taxminlar mavjud boʻlib, buyuk faylasuf olimlar Nosir Xusrav, Abu Nosir Farobiy va Ibn Sinolarning musiqa sanʼati ravnaqiga, musiqa ilmiga qoʻshgan xissalari tarix zarvaraqlarida alohida qayd etilgan[5].

Gʻijjak milliy cholgʻu asbobi dastlabki tuzilishida ikki torli boʻlib, rivoyatlarga koʻra oʻtmishning otashqalb kamon ustasi sexrli sozanda Qulmuhammad Udiy tamonidan uchinchi yoʻgʻon tor tortilib, takomillashib ovoz diapozoni kengaytirilgan, ijro imkoniyatlari ancha boyitilib sevimli soz asbobiga aylantirilgan ekan.

Qoraqalpoq gʻijjagining boshqa xalqlar gʻijjagidan farqi toʻrtta tor emas, uchta tor tortiladi. Ustki tordan boshlanib mi-lya-re noʻtalarida kvarta uslubidan sozlanadi. Tuzilishi boʻyicha gʻijjak asosan uchta qismdan iborat.

Birinchi qisim: Gʻijjakning chanogʻi-chanoq yumaloq boʻlib, suv qovoqdan, tut yoki jiyda yogʻochini oʻyib olinadi va ustki qismini ochiq qoldirib yuzini laqqa baliqning terisi bilan qoplanadi. Lekin baliq terisi har xil namlikda gʻijjakning ovozigacha salbiy tasir koʻrsatadi va shuning uchun molning yurak pardasidan qoplanadi.

Ikkinchi qisim: Gʻijjakning tori-ilgari, oʻtkan asrning oʻttizinchi yillariga qadar, gʻijjakning tori ipakdan boʻlgan. Keyinchalik esa skripkaning uchta torini olib hozirgi kunda ham foydalaniladi.

Uʻchinchi qisim: Gʻijjakning korpusi, yani dastasi asosiy qismidir-oʻrik va tut daraxtidan yasaladi, Dastaning yuqori qismida torlarni ushlab turadigan uchta qulogʻi boʻladi. Torlarni koʻtarib turuvchi quloqning ostida shayton xarragi boʻlib, chanoqning dastaga yaqin yurak pardoning ustiga katta xarrak qoʻyilib, shu orqali gʻijjakning torlari koʻtarilib ovozi jarangdor eshitiladi. Asosan gʻijjak cholgʻusi tizzaga qoyib chalinadi.

Tarixga nazar tashlasak, gʻijjak cholgʻu asbobini mukammal ijro etgan oʻtmishning sozandalar peshvosi Said Ahmad Gʻijjakiy gʻijjakning ilohiy kuchiga inson ovozini beruvchi tovushiga

mavtun bo‘lib: “Falak Sharq Quyoshining Zarrin nurlarini faqat g‘ijjak kosasi, Tosi uchun yaratganday, alqissa kamoning tori esa Jannat xurlarining soch tolalaridan yaratganday inson ruhiyatini, mungini orzu xavas, umidlarini asrdan-asrga ko‘chiradi degan bashorati to bizning kunimizgacha ijro kuchini saqlab kelmoqda. Xaqiqatdan ham g‘ijjak navosi odam ruxiyatidan so‘ylaydi.

Qoraqalpoq milliy musiqasida g‘ijjak cholg‘u asbobi dastlab uch torli “Dutor g‘ijjak” deb atalib, baxshining ovozi bilan dutorning tovushini yoqimli shirali qochirimlarda bezagan namaning (navoning) hovuji (pardasi) ni ko‘targan, baxshilar dutorda yangrata olmagan navolarni topib, dator bilan g‘ijjak ijrosini uyg‘unlashtirgan. Baxshining ovoz diapozoniga qarab kuylar yaratganlar ham aslida g‘ijjakchilar bo‘lgan. XIX asrga kelib g‘ijjak sozining mohir ijrochilari ustozlar talqinida cholg‘uga xos qonuniyatlarga, maktab va shakllarga bo‘ysunib, ustozdan shogirtga o‘tib, milliylik, umrboqiylik zamiriga asos solingan.

Qoraqalpoq doston ijrochiligi maktabi asosan to‘rtga bo‘linadi

1. Aqimbet-Musa maktabi;
2. G‘aribniyoz-Suyav maktabi;
3. Arzi maktabi;
4. O‘rinboy maktabi.

Bu maktablar har biri o‘z ijrochilik mahorati, chokg‘u sozlash va hakazo uslublari bilan bir-biridan farqlanib turgan. Baxshilar asosiy ijro etadigan dostonlari: Sayotxon-Hamro, Oshiq G‘arib va Shohsanam, Yusuf Ahmad, Bazirgon, Go‘ro‘g‘li, Xirmonda-li, Avaz uylangan dostonlari yuzlab qo‘shiq va termalarni o‘rganib ijro etishgan[6]. Qoraqalpoq baxshi san‘ati garchi to‘rt maktabdan tashkil topgan bo‘lsa ham, ularni bir-biri bilan mustahkam bog‘lab, biriktirib va to‘ldirib turuvchi yagona vosita-bu Qoraqalpoq milliy xalq cholg‘u asbobi g‘ijjak sanaladi. Mazkur uch torli g‘ijjak baxshining istedodi to‘laroq namoyon bo‘lishiga yordamlashgan va dator navosini boyitishga xizmat qilganligi bois har bir baxshi o‘zi bilan g‘ijjakchi olib yurgan[7]. Shu nuqtaiy nazardan qarasa uch torli kvarta uslubida sozlanadigan Qoraqalpoq g‘ijjak sozining moxir ijrochilari Qidirboy, Xolmurod, Ollanazar Boylibesov, Mambet Uzoqov, Qo‘yli Ahmedov, O‘rinboy Jumag‘alyev, Qurbonboy va Jarilqag‘on Esjaovlar, Karimboy Tniboyev va Qoraqalpoq ayol-qizlaridan chiqqan ilk g‘ijjakchi sozanda bo‘lib, ustozlar qatoridan o‘rin olganidan faxrlanaman.

Xulosa va takliflar:

Ustozlar tamonidan ko‘pgina g‘ijjakda yakkaxon ijro etiladigan xalq kuylari bor. Ulardan Halqali, Muxalles, Dem bermas singari ajoyib navolarni xalqimiz sevib tinglaydi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki qoraqalpoq doston ijrochiligi baxshi san‘ati bilan barabar o‘sib rivojlanib, xatto doston kuylarini to‘ldirib mukammallashtirib keloyotgan milliy cholg‘u asbobi g‘ijjakka ikkinchi darajali degan nazar bilan qarash ayanchli, albatta. G‘ijjak cholg‘usi doston ijrochiligida o‘zining munosib o‘rniga ega, Dutorga qo‘shimcha sayqal, baxshilarga tin beradigan, goh baxshi tilidan to‘qilgan moxir ovozga sehr ulashuvchi xususiyatga ega. Baxshilarning aksariyati dutordan tashqari do‘mbira, changqobuzni chalishni bilsalarda, uch torli g‘ijjak chalishni unchlik ham eplay olishmagan. Lekin g‘ijjakchilarning dutorni maxorat bilan chala olishi tarixiy haqiqat.

Xulosa qilib aytganda, milliy cholg‘u asboblarimizdan bo‘lmish g‘ijjakga ham alohida etibor qaratilishi, baxshi sozandalar, san‘atshunos olimlarimiz qoraqalpoq doston ijrochiligida ushbu cholg‘u asbobining tutgan o‘rnini adolatli belgilash vaqti yetib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 1-Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tadbirda so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. Toshkent, 2019-yil 7-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik sanatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 2-sentyabrdagi 536-son qarori.
4. Qoraqalpoq xalq namalari, VIII-tom, Adabiyot nashriyoti, 1959-yil.
5. G‘ijjak sehri Gulruh Mamutova Toshkent fan va texnologiya nashriyoti, 2011-yil.
6. Немного о культуре Тамара Davletmurotova Nukus Qoraqalpog‘iston 2021-yil.

7. Matyoqubov B. Doston navolari. Toshkent, 2009-yil.